

## **BOLALAR SONI KO‘P GURUHLARDA CHET TILINI O‘QITIHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI**

*Yuldashev Og‘abek Komiljon o‘g‘li*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Yevropa tillar kafedrasi o‘qtuvchisi*

*Mamatqo‘ziyeva Shahriniso Xudoyberdiyevna*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Maktabgacha talim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishning dolzarbliji, yosh xususiyatlari asosida til o‘rganish afzalliklari hamda samarali metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. O‘yinlar, ko‘rgazmali vositalar va inglizcha muhit yaratish orqali bolalarda chet tiliga bo‘lgan qiziqish va nutq faolligi oshishi ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Shuningdek, davlat dasturlari va pedagogik yangiliklar asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, ingliz tili, erta til o‘rganish, o‘yin metodikasi, chet tili muhiti

**Аннотация:** В статье рассматривается актуальность преподавания английского языка в дошкольных образовательных учреждениях, а также преимущества раннего изучения языка с учетом возрастных особенностей детей. Анализируются эффективные методические подходы, такие как использование игр, наглядных пособий и создание англоязычной среды. Отражены пути совершенствования учебного процесса на основе государственных программ и педагогических инноваций.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, английский язык, раннее изучение языка, игровая методика, англоязычная среда

**Abstract:** This article discusses the importance of teaching English in preschool education, highlighting the benefits of early language acquisition based on children's age-related characteristics. It analyzes effective methodological approaches, such as the use of games, visual aids, and the creation of an English-speaking environment. The article also outlines strategies for improving the educational process based on national programs and pedagogical innovations.

**Keywords:** preschool education, English language, early language learning, game-based methodology, English-speaking environment

So‘nggi yillarda ingliz tilini o‘rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko‘paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o‘rganish ham yosh davrlariga bog‘liq. Hatto, olimlar bolalar

kattalarga nisbatan tilni tez va oson o‘zlashtirishni isbotlashgan. Bolalarda til o‘rganishga bo‘lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko‘pligi va o‘rgangan ma’lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir. Mamlakatimizda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi xorijiy tillarni boshlang‘ich sinflarda va kommunikativ maqsadlarda o‘qitishiga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Ingliz tili boshlang‘ich ta’limga o‘quv predmeti sifatida kiritildi, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizi ikki yoki undan ortiq tillarda so‘zlasha olishi barchaga ma’lum. Jahonda pedagoglar.org 60-son 2-to‘plam Avgust 2024 Sahifa: 8 globallashuv jarayonlarini tezlashtirish, erkin bozor munosabatlariga o‘tish va ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etishning rag‘batlantirilishi «lingvistik kapital»ga, ya’ni chet tillarni (ayniqsa, ingliz tilini) mukammal egallagan mutaxassislarga ehtiyojni kuchaytirmoqda. Boshlang‘ich sinflarda chet tili fanlarini o‘qitishining afzallikkleri quyidagilar:

1. Kognitiv rivojlanish:
2. Madaniy rivojlanish:
3. Shaxsiy rivojlanish:
4. Kelajakdagi imkoniyatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707 sonli “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida” gi qarorga imzo chekishlari ham JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS WSRJournal.com Volume 2 April\_2022 521 bolalarga berilayotgan imkoniyatlar eshigini yanada keng ochmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim sohasida bolalarni tarbiya qilish bilan bir qatorda chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan layoqatlarini oshirishga ham alohida urg‘u berilayotgani bejiz emas. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlariday: “Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo‘lgan davrda har tomonlama puxta ta’lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliylik va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biridir. Zero, farzandlarimizning maktabda qanday o‘qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko‘p jihatdan ularning maktabgacha ta’lim muassasasida oladigan tarbiyasiga bog‘liqdir”. Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intelektual rivoji hamda ularning iste’dodi va qobiliyatlarini to‘liq amalga oshirishga e’tibor berishga bog‘liq bo‘ladi. Darvoqe, davrtaraqqiyoti, globallashuv jarayoni yoshlardan bir necha xorijiy tillarni bilishlarini talab etmoqda. Bugungi kunda, ilmiy texniktaraqqiyot har sohada shuningdek, ta’lim-tarbiya sohasiga ham yangi-yangizamona viy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Chet

tilini pedagogik texnologiya asosida o'rgatishning avvalgimetodlardan afzalligi, birinchidan, u ta'lif jarayonini bir butunlikda ko'ribta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari ta'limbosqichlarini loyihalab, ta'lif jarayonini nazorat qilish va ta'lif natijalarinibaholash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'liq tizimga keltirib turib, uningloyihasini tuzishidadir. Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi,kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Albatta, o'qitish mobaynida buyumlardan foydalanishda tarbiyachilarining metodikasi katta rol o'ynaydi. Misol uchun, tegishli so'zlarni o'rgatayotganda, siz avvalo buyumni bolaga ko'rsatib uni gapirishga undaysiz, bolalar so'zlarni talaffuz qiladi va ular talaffuz qilgan so'zni mustahkamlash uchun kartochkalardagi rasmlardan foydalanib yana bir bor yangi so'zni takror talaffuz qildiriladi. So'zlarni o'qitishda o'qituvchilar matn mazmunini belgilab olishlari va o'quvchilar e'tiborini jalb qilish uchun tarbiyachi ular bilan birqalikda so'zlarni talaffuz qilib doskaga suratini chizish orqali ularning e'tiborini tortishlari mumkin bo'ladi. Shuning uchun hozirda tarbiyachidan rasm chizish mahoratiga ega bo'lish talab qilinadi.Bu nafaqat o'qitishning qiyinchiliklarini qisqartiribgina qolmay, balki tarbiyalanuvchilarni o'rgangan bilimlarni asta-sekin mustahkamlashga yordam beradi.Bolalar ingliz tilini o'rganish jarayonida o'zlaridagi yutuqlarni his etishlari uchun har bir o'quv mashg'ulotiga mukammal yondashish kerak.Anna shundagina bolalarda o'rganishga motivatsiya uyg'onadi. Bolalar uchun ingliz tili qo'shiqlaridan tortib she'r va hikoyalar, videoroliklar orqali o'rgatib kelinmoqda. Bu zerikarli til darslarini qiziqarli kunlik o'yinga aylantiradi.Tarbiyachi muntazam har bir bolani pisixologiyasidan kelib chiqqan holda ularga tarbiya usulini qo'llashi zarur. Bu tarbiyachidan faqatgina tarbiyachi bo'lib qolishni emas bir vaqtning o'zida rassom, musiqachi, chet tili o'qtuvchisi, va yaxshigina psixolog ona bo'lishni ham talab qiladi. Talim darajasini oshirishda imo-ishorani yuz ifodasining o'rni. Imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali: Tarbiyachi bolalarga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, turing, daftarni och,bo'yang, doskaga qarang, kabi gaplarni ishlatganda imo-ishoralardan foydalansa bolaga bu gaplar tushunarli bo'ladi. Imo-ishora ingliz tilining eng muhim o'rgatish usulidir.Bog'cha bolalariga inglizcha biror narsaning osongina o'zbekcha nomini topishga yordam beradi.Deyarli barcha tarbiyachi tayyorlov jarayonida hayvon ishoralari eng oson usul ekanligini biladi. (cat) mushukcha-tarbiyachi miyovlab bolalarga mushuk (dog) kuchukcha – tarbiyachi egilgan holatda, kerak bo'lsa tilini chiqarib bolalarga it qiyofasini shakllantirib beradi;(rabbit) quyoncha-qo'lchasini ko'ksiga egik qo'ygan holatda sakrab ifoda etadi;(monkey)maymuncha-bir oz egilib yurgan holatda o'z qiyofasini namoyish etadi. Taqlid qilish xislati bo'lgan bolalar uchun bu judayam qiziq tuyulib, shu zahoti ifoda etilgan hayvon nomini aytishga harakat

qilishadi.Biz bu orqali chet tili o'rganish qiziqarli atmosferasini yaratamiz. (JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS WSRJournal.com Volume – 2\_ April\_2022 524) Olingan ko'nikmalarni mustahkamlash uchun jumboq o'yinlardan foydalanish. Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borish kerak, uni xato bo'lsada gapirishga majbur qilish kerak, ana shundagina tarbiyalanayotgan bola o'z oldidagi to'siqlarni yengib o'tib, qo'rmasdan gapira oladi.Agarda biz chet tili darsini dars emas, balki o'yin shakliga keltirsak kichik yoshdag'i bolalarni qiziqishini yanada oshiradi.Shu bilan birgalikda ularning faollik darajasi ham o'sib boradi.O'yining turlari juda ko'p misol uchun tarbiyachi "qopda nima bor degan" o'yini bolalar bilan o'ynashi mumkin. Xonadagi kichik buyumlarni xaltachaga solib, bolalarga birma-bir olishiga ruxsat beradi va bolalar bu buyumlar nomini ingliz tilida aytib berishadi. "Is it a watermelon(a pear, a grapes)?" tarbiyachi baholashga kirishadi, va eng ko'p ball to'plagan guruhni taqdirlaydi. Shu bilan bolalar yanada chet tiliga bo'lgan qiziqishlari o'sib boradi. Bolalar o'rtasida musobaqalar judayam muhim, sababi bolalarda yoshlidan raqobat tuyg'usini shakllantirib borish kerak bo'ladi.Ana shundagina har bir bolada motivatsiya tilga bo'lgan qiziqish uyg'onadi.Insoning barcha qiziqishlari raqobat orqali keladi.Buni bolalar timsolida ham ko'rshimiz mumkin, ularda bu yo'l orqali jamlikni, raqobat orqali raqibini bilishni atrofni o'rganishni o'rgatadi. O'qitish samaradorligini oshirish uchun multimediedan foydalanish. Multimedia orqali o'qitish tarbiyachiga katta imkoniyatlarni beradi. Bunda bolalarning qiziqishini yuqori darajagacha ko'tarish va ularning e'tiborini uzoq vaqt jalb qilib turish mumkin. Bu orqali bolalarning tilga bo'lgan ko'nikmalarini yanayam ortganini ko'rshimiz mumkin. Agarda mavzuimiz "Animals" bo'lsa biz har xil hayvonlarni nomlarini o'qitishda avval ularning tovushlaridan foydalanamiz bolalar bunga qattiq e'tibor qaratishadi, va shu zahotiyoyq carrot,bear....deb hayvonlar nomlarini aytishi boslashadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki maktabgacha yoshdag'i bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin,rasmlar,qo'shiq va she'rlardan,multfilmlardan foydalanish samarali hisoblanadi chet tilini o'rganish o'zga dunyo bilan tanishish imkoniyatini tuhfa etar ekan, bu imkoniyatdan o'z vaqtida oqilona foydalanishning eng samarali uslublarini qo'llash hamda ulardan maqsadimiz yo'lida oqilona foydalana olishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Didaktik o'yinlardan foydalanish: chet tili o'qitishning amaliy tarbiyaviy vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Talabalarning chet tilida muloqot qilishiga nisbatan psixologik salbiy kechinmalari, his-hayajonlarini yo'qotishga imkon beradi va mustaqil fikrashga, nutq faoliyatlarini tezlashtirishga undaydi. Umuman olganda chet tilini intinsiv o'qitish tilni tezroq o'rganishiga imkon beradi va dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bolalarga chet tilini erta yoshdan o'rgatishning ko'plab afzalliklari bor. Bunda kognitiv rivojlanish, yaxshi talaffuz, akademik muvaffaqiyat va kasbiy imkoniyatlar muhim omillardan hisoblanadi. Shu bilan birga, jarayonning ona tiliga ta'siri, stress keltirib chiqarishi va resurs talab qilishi kabi kamchiliklari ham mavjud. Eng

muhimi, ota-onalar va pedagoglar bolalarga chet tilini o'rgatishda to'g'ri yondashuvni tanlashlari kerak. To'g'ri yondashuv orqali bolalar ikki yoki undan ortiq tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo'lib yetishishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1 Ikanova, L. (2019). Learners' digital literacy of students in language classrooms. Trends in Teaching Foreign Languages: Achievements, Challenges and Solutions, 98-99.
- 2 Шамсематова, Б. (2022, March). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ТИЛ БИРЛИКЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ АСПЕКТДА ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ. In International Congress on Models and methods in modern investigations.
- 3 qizi Eshboeva, D. A. (2020). TEACHING ENGLISH AT PRE-SCHOOL EDUCATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(11), 399-403.
- 4 Qizi, Eshboeva Durdon Alisher. "TEACHING ENGLISH IN PRESCHOOL EDUCATION." Наука и образование сегодня
- 5 . Bekmuratova U.B . " Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.
- 6 Toliboboeva,S.J. (2020). TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH. ScienceandEducation